



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY MAJLIS SENATI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY MAJLIS SENATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLAR
QO'MITASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

**“Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning
oldini olish va ta’limda gender tenglikni ta’minlash”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**25-oktyabr
TOSHKENT-2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“XOTIN-QIZLARGA NISBATAN
ZO‘RAVONLIKNING OLDINI OLISH VA
TA‘LIMDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASH”**

**mavzusida xalqaro ilmiy anjumani
to‘plami**

Toshkent – 2023

Umida Rasulova,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti professori, filologiya
fanlari doktori

JAMIYATDA AYOLLARNING MAVQEYI

Kalit so‘zlar: ayol, olim, ma’rifat, soha, millat

Key words: woman, scientist women, enlightenment, field, nation

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni, mavqei xususida mulohaza yuritiladi.

Annotation: This article discusses the role and position of women in society

Har bir millatning an’ana, urf-odatlarini zimnida o‘zlik, g‘urur, oriyat kabi nodir fazilatlar bo‘y ko‘rsatadi. Bu tushunchalar farzand siyratiga ota-onaning axloqiy ahkomlari silsilasida singib boradi. O‘zbek ayoli tiynatidagi hayo, ibo, andisha yanglig‘ tuyg‘ular doim e’zozlangan. Bugun globallashuv davrida turli madaniyatlar kishilar axloqiga ta’sirini o‘tkazmoqda. Ommaviy madaniyat insoniyatni sinoatga bardoshli bo‘lish bilan birga ezguligu yovuzlikni saralashga chorlamogda. Turli oilada voyaga yetgan, o‘z dunyoqarashi, maslagiga ega ayollar ham muhitdagi o‘zgarishlarni kuzatib, undan to‘g‘ri xulosa chiqarishga intiladi.

Hozir jamiyatda ikki toifani uchratish mumkin: ilmu ma’rifati, salohiyati ila soha asrorini egallagan yoxud ma’naviy qashshoqligi bois ziyon yetkazayotgan ayollar. Imonli, zakovatli ayol uy bekasi bo‘lsa ham farzandining odobli, bilimlil bo‘lishiga ahamiyat qaratadi. Oiladagi halovat, sakinat bolalar ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularga quvvat baxsh etadi. Aqliy yoxud jismoniy mehnatga layoqatli xotin-qizlar

ham oilaga, ham jamiyatga munosib hissa qo‘shishga harakat qiladilar. Muhimi, ishonch, mas’uliyat, kasbga mehru sadoqat besamar ketmaydi. O‘qituvchi, murabbiy, shifokor, iqtisodchi, muhandis kabi kasblarda fidoyilik bilan faoliyat yuritayotgan ayollar ko‘p. Ular hayotiy tajriba, bilimu malakasi bois vaziyatli muammolarni hal etib boradi.

Dunyoda pandemiya sharoitida shifokorning aqlu idroki, mas’uliyatini insoniyat his etdi. Xususan, shifokoru hamshira ayollar hayotini garovga qo‘yib kishilarga beminnat ko‘mak bergani barchaga ayon. O‘qituvchilar millatning farzandiga saboq berar ekan, uning fitratiga vatan tuyg‘usini singdirishi, turli fanlar asrorini uqtirishi, mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishi talab etiladi. Ta’limning turli bosqichida yoshlarga to‘g‘ri tarbiya berish taraqqiyot uchun muhim omil sanaladi. Oliy ta’limda olimalarning o‘z sohasiga doir ilmiy izlanishlar olib borishi natijasida yangiliklar kashf etiladi. Buning asnosida odamzot zarur bo‘lgan ilmlar mahzanini anglab boradi. Bir sohaning barcha tarmog‘ini teran o‘zlashtirish albatta, ko‘plab masalalarni hal etishga imkon beradi.

Jismoniy mehnat bilan shug‘ullanayotgan ayollar bog‘u dalalarda meva sabzavotlarni yetishtirib elning dasturxoniga yetkazadilar. Qadoq qo‘llar oddiy yerni ham gulzoru bo‘stoniga aylantiradi. Ular tunu kun mehnat qilishdan, shuning barobarida ro‘zg‘or ishlarini yuritishdan toliqmaydi. Bu sodda, samimiy, zahmatkash ayollar halol rizq orqali huzur-halovatga erishadilar. Agronom, brigadir, bog‘bon ayollar ona zamin bilan tillashib, uni parvarish aylab ne‘matni zavol etmay elga ulashadilar. Ayollar nabototu hayvonotni asrashga hissalarini qo‘shib, ularni bolasiday alqaydilar. Xususan, madaniy yoxud yovvoyi hayvonlarni boqib, mehr ulashgan xotin-qizga jonzotlar hech qachon ozor yetkazmaydi, undagi oqibatni his qiladi. Aqliy yoxud jismoniy mehnat vositasida o‘zligini namoyon

etayotgan, oila, jamiyatga foydasi tegayotgan ma'suma, oqila ayollar doim e'zozlab kelinadi.

Xalqimizda: "Guruch kurmaksiz bo'lmas" naqli mavjud. Jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy sohalar rivojiga foydasi tegmaydigan kimsalar borligi sir emas. O'zligini, o'zbekligini unutgan ma'nan buzuvq toifalar kelajakka rahna soladilar. Oson, yengil pul topish ilinjida odam savdosi, fahsh, narkotik tijorati bilan mashg'ul ayollar bu nomga isnod keltiradilar. Ulardagi imonsizlik, nafsga mutelik qabih, yovuz ishlarga yo'l beradi. Ko'p holda ilm olmaganlik ro'kach qilinsa ham aslida ular oddiy mehnat ortidan kam pul topishni o'ziga munosib ko'rmaydi. Harom pulning qiyomat kuni so'rovi og'ir ekanini bilmaydi, bilishni istamaydi. Shu o'rinda ona degan maqomga dog' tushirayotgan johilalarni ham eslashga majburmiz. Ular orasida nikohsiz, zino orqali farzand tug'ib yetimxonaga topshirayotganlar ham, moddiy qiyinchilik sabab bolasini sotayotganlar ham bor. Axir, urush davri, qiyinchilik, ayriliq onlarida ham Ona o'z farzandidan ortib boshqa sag'irlarni voyaga yetkazgani tarixdan ma'lum. Bugun bahonai vaj qilib insoniy tubanlikdan voz kechmayotganlar ham afsuski bor. Ular mehru muruvvatdan mosuvo bu go'daklar qismati qanday bo'lishini o'ylamaydilar. Boisi, ota-ona muhabbati, oila fayzu tarovatini his etgan farzandda noyob qobiliyat bo'lishini olimlar isbotlamoqda. Aksincha, bolalikdan mahrum etilganlar qalbida nafrat, xusumat nish urishi xavotir uyg'otadi. Bu kichik xatolar zanjir yanglig' kabir gunohlarga yo'l ochadi. Manqurt toifadagi odamkushlar qismati kuzatilsa, ko'p holda ayanchli bolalik hosilasi ekani ma'lum bo'ladi.

Bugun farzandlar tarbiyasiga xavf solayotgan holatlar milliy tarbiya, axloq ahkomiga umuman noloyiq ekani ayon. Avvalo televideniye orqali berilayotgan reklamalar saviyasi, yo'nalishi katta-yu kichikni xavotirga tushirayotir. Bachkana, behayo

tasvirlar, turli kasalliklar, er-xotin orasidagi shaxsiy sirni ochiq ko'rsatayotgan mas'ullar beparvo, loqaydligidan iztirobga tushasiz. Hatto kitoblarda yoritilmagan, yozilmagan, man qilingan mavzularning erkin targ'ibotchilari qadriyatga zid ravishda moddiy manfaatni ustun ko'rmoqda. Aslida oriyatli insonlar bunday narsaga barham berishi, millat oldida javobgarlikni his etishi shart.

Vabo singari barchaning ruhiyatiga ta'sirini o'tkazayotgan bemaza, bema'ni narsalar targ'ibi hatto animatsiya, multfilmga ham singib bormoqda. Yovuz, johil qahramonlar vositasida go'dak bolalar qalbini parchalash, sindirish maqsad qilinadi. Turli madaniyatga mansub animasion obrazlar farzandlarimizni mard, jasur, tantilikka emas, aksincha isyonkor, beshafqatlikka chorlayotgani achinarli hol. Boy merosimiz namunasi ertagu dostonlar asosida filmlar yaratish bolalar pokiza ko'ngliga mehru oqibat, adolatu hidoyat urug'ini joylaydi. Har kuni minglab tomoshabinga namoyish etiladigan milliy seriallar mavzu yo'nalishi, saviyasiga e'tibor qaratsak, davlatning mablag'i noto'g'ri sarflanayotganiga shohid bo'lasiz. Oila ma'naviyatini anglamagan rejissyoru aktyorlar daromad ilinjida ijtimoiy axloqqa zid seriallar ko'payishiga hissa qo'shmoqda. Qahramonlar nutqidagi sheva, jargon, vulgar so'zlar tilimizga, madaniyatimizga hurmatsizlikning yorqin namunasi. Qaynona- kelin, er-xotin orasidagi nizolar, kelishmovchilikni avj pardada ko'rsatishdan muddao ne? O'zbek millati urf-odatlarining poymol etilayotgani, fahshu xiyonatning tabiiy qabul qilinayotgani kishini taajjubga soladi. G'ururi baland yigitlar, andishali ayol, qizlarni voyaga yetkazgan, nasli pokligini avaylagan, muhimi, oilani muqaddas sanagan elimizning qadrini asrash barchamizning burchimizdir. Shunday ekan, om-maga taqdim etiladigan turli filmu seriallar badiiy kengashdan jiddiy o'tkazilishi, jamoatchilik hukmiga havola etilishi shart.

Jamiyatdagi mas'ullar dolzarb muammoni bugun hal etsa, vijdonan xalqiga xizmat qilib, faqat millat manfaatiga munosib xayrli ishlarni amalga oshirsa ayni muddao bo'ladi. Ayollarni oilada, jamiyatda hurmat qilish, ardoqlash, ilmu ma'rifatga yo'naltirish kelajakda fozilu odil shaxslarning kamol topishiga zamin yaratadi.

MUNDARIJA

JAMOLDINOVA Odinaxon Rasulovna OLIJ TA'LIMDA GENDER TENGLIK MASALALARI.....	4-13
ULUG'OV Abdulla AYOLLARNI ARDOQLAGAN ADIB.....	14-44
RASULOVA Umida JAMIYATDA AYOLLARNING MAVQEYI.....	45-59
NORMURODOVA Nozliya Zarilovna EMPOWERING WOMEN AND SUPPORTING FAMILIES: SDG 5 IMPLEMENTATION AT.....	50-54
JO'RAYEVA Gulnoza Axmatovna IJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH MASALALARI (OLIJ TA'LIM TIZIMI MISOLIDA).....	55-59
SOLIXO'JAYEVA DILDORA ABDURAIMOVNA PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI O'QUVCHILARINI QARINDOSH - URUG'LAR O'RTASIDAGI NIKOHNING OLDINI OLISHGA TAYYORLASH.....	60-67
EGAMBERDIYEVA Turg'unoy Axmadjonovna, ABDURASULOV Abdullajon Abdukarimovich O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA OLIJ TA'LIM MUASSASALARIGA BOSHQARUVNING INNOVASION USULLARINI JORIY QILISHNING ISTIQBOLLARI.....	68-73
NISHONOVA Nodiraxon Rayimjonovna, DJABBAROVA Muqaddas Maxamaddinovna XOTIN-QIZLAR HUQUQIY FAOLLOIGI – TAHQIRLANISHNING OLDINI OLISHDIR (sotsiologik tahlillar asosida).....	74-80

